



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI
D E P U T A T S O ‘ R O V I**

2025-yil 5-iyun

20-03/19-son

**O‘zbekiston Respublikasi
Energetika vaziri
J. Mirzamaxmudovga**

Hurmatli Jo‘rabek Tursunpo‘latovich,

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan joylarga chiqqan holda saylov okruglarida fuqarolar bilan uchrashuvlar o‘tkazilib kelinmoqda.

Shu kabi uchrashuvlarning biri Farg‘ona viloyati, Rishton tumani, «Jaxonobod» MFY hududida bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida fuqarolar tomonidan «og‘ir hudud» deb tanlab olingan mahallalarning elektr ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha 2022 yilda «og‘ir hudud»lar bo‘yicha rejalashtirilgan ishlar qisman boshlanganligi va to‘liq bajarilmaganligi hamda ushbu ishlar nazoratsiz qoldirilganligi yuzasidan e‘tirozlar bildirildi.

Qayd etish kerakki, 2022 yilning 15 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi o‘tkazilgan «Mahallabay ishlash va kambag‘allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha 2022 yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar»ga bag‘ishlangan kengaytirilgan videoselektor yig‘ilishida topshiriqlar berilgan. Yig‘ilishda aholi murojaatlari orqali joylardagi vaziyat o‘rganilib, mahallalar qiyofasi va ijtimoiy muhitini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratish lozimligi ko‘rsatib o‘tilgan. Bu ishlar, avvalo, iqtisodiy va ijtimoiy holati nisbatan og‘ir bo‘lgan Rishton tumanidagi iqtisodiy-ijtimoiy holati eng «og‘ir hudud» hisoblangan **3 ta mahallalar**, ya‘ni «**T.Axmedov**» MFY, «**Jahonobod**» MFY, va «**Cho‘ng‘ara**» MFYlari tanlab olingan.

Bundan tashqari, So‘x tumanida o‘tkazilgan uchrashuvlarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 8 avgustdagi «2020–2021 yillarda Farg‘ona viloyatining So‘x tumanini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–4798 sonli qaroriga asosan mahallalarning elektr ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha 2020 yilda boshlangan ishlar ham yakuniga yetkazilmaganligi ma‘lum qilingan. Qarorga asosan bir qator ishlar

amalga oshirilgan bo'lsada, rejalashtirilgan ishlarni to'liq yakunlash uchun **15 ta** MFYlarda jami **381 dona** temir-beton tayanchlar o'rnatilishi, umumiy uzunligi **23 km** bo'lgan elektr tarmoqlari qurilishi hamda **2 dona** transformator punktlari o'rnatilishi belgilangan.

Ushbu vazifalar to'liq bajarilmaganligi fuqarolarning haqli e'tirozlariga hamda takroriy murojaatlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Sizdan, «Parlament nazorati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq keltirib o'tilgan masalalar yuzasidan **10 kunlik muddat ichida asoslantirilgan tushuntirish** berishingizni hamda rejalashtirilgan ishlarni yakunlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida asosli ma'lumot taqdim etishingizni so'rayman.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis
Qonunchilik palatasidagi,
O'zbekiston XDP fraksiyasi a'zosi



Z. Zoxidov



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI
MINISTRY OF ENERGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, 100047, Toshkent sh., Istiqbol ko'chasi, 21-uy
Tel.: +998 71 231-18-81, El. pochta: info@minenergy.uz, minenergy.uz



2025-yil 13-iyun № 01-28-1000

O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik
palatasi deputati
Z.T. Zoxidovga

Hurmatli Zokirjon Tuxtasinovich!

Sizning 2025-yil 5-iyundagi 20-03/19-son so'rovingiz yuzasidan quyidagilar ma'lum qilinadi.

Farg'ona viloyati, Rishton tumani, "T.Axmedov", "Cho'ng'ara" va "Joxonobod" MFY hamda So'x tumani "Cho'ng'ara" MFY hududida istiqomat qilayotgan fuqarolarning murojaatlari "Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari" AJ mutaxassislari hamda MFY raislari va faollari ishtirokida joyiga chiqib o'rganildi (o'rganish natijalari bo'yicha tuzilgan dalolatnoma ilova qilinadi).

Bugungi kunda, Rishton tumani, "T.Axmedov", "Cho'ng'ara" va "Joxonobod" MFY hamda So'x tumani "Cho'ng'ara" MFY iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlovchi transformator punktlari va elektr uzatish tarmoqlarini yangilash bo'yicha amalga oshirilgan va joriy yilda amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar "Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari" AJning 2025-yil 13-iyundagi 01-14/3613-son xati bilan taqdim etilganligi ma'lum qilinadi.

Ilova: __ betda.

Hurmat bilan,

Vazir

J.Mirzamahmudov

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI

№ 2853 « 17 » 06 20 25 y.

**"FARG'ONA HUDUDIIY
ELEKTR TARMOQLARI KORXONASI"
AKSIYADORLIK JAMIYATI**

Joylashuv manzili: 150100, Farg'ona sh.,
Mustaqillik ko'chasi 3-A uy
73 244 00 64,

Call markaz +998 73 244 49 50

H/r: 20210 000 900 215 289 001

Farg'ona sh., Sanoat qurilish banki (SQB)
STIR: 200144930, MFO: 00440



**JSC "FERGHANA ENTERPRISE OF
TERRITORIAL ELECTRIC NETWORKS"**

The actual address of the company: 150100,
Ferghana city, Mustakillik str., 3rd A.
Phone: +998 73 244 00 64, Tel: +998
Call Center +998 73 244 49 50

A/N: 20210 000 900 215 289 001

In JSCB "Uzpromstroybank" of the city of Ferghana
ITN: 200144930, MFO: 00440

13-iyun 2025-yil
01-14-/3613-son

**O'zbekiston Respublikasi
Energetika vazirligiga**

Nusxasi: "Hududiy elektr tarmoqlari" AJga

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligining 2025-yil 16-iyundagi 2-4-4-son topshirig' ijrosi yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati Z.Zoxidovning deputatlik so'ravida keltirilgan masalarni ko'rib chiqib, quyidagilarni ma'lum qilamiz.

2022 yil 17-noyabrdagi PQ-425 sonli "Tashabbusli budjet" loyihasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72 qaroriga asosan, 2022-yilda Rishton tumanidagi **"T.Axmedov" MFY** hududida 5 dona transformator punktlari va 6,9 km uzunlikdagi tarmoqlar tortilib qurilish-montaj ishlari to'liq yakunlangan. **"Cho'ng'ara" MFY** hududida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-avgustdagi PQ-435 qaroriga asosan 1 dona transformator punkti va 7,1 km uzunlikdagi tarmoqlar tortilib qurilish-montaj ishlari to'liq yakunlangan. **Joxonobod MFY** hududida 2016-yil 23-noyabrdagi PQ-2661 sonli qarorga asosan 2020-2021-yillarda 1 dona transformator punkti va 2,1 km uzunlikdagi tarmoqlar tortilib qurilish-montaj ishlari to'liq yakunlangan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi PQ-72 qarorga asosan 1 dona transformator punkti va 1,8 km tarmoq hamda 95 dona temir beton tayanchlar o'rnatilishi rejalashtirilgan biroq ushbu obekt moliyalashtirmaganligi sababli qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilmagan. Hozirda "Farg'ona HETK" AJ ichki imkoniyatidan kelib chiqib 63 dona temir beton tayanchlar olib borilib o'rnatilgan. 2025-yil dasturiga kiritilib yil yakuniga qadar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

So'x tumanida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8- avgustdagi PQ4798-sonli qarorga asosan 46 dona transformator punktlari va 111,6 km elektr tarmoqlarini qurish rejalashtirilgan. Amalda 49 dona transformator punktlari, 112,9 km elektr tarmoqlari qurib bitikazilgan. Qaror ijrosini ta'minlash davrida loyiha-qidiruv ishlari olib borish jarayonida axoli murojaatlarini inobatga olgan holda loyiha ko'lamini kengayganligi sababli belgilangan rejaga qo'shimcha 33 ta obyektlarda 5 dona transformator punktlari hamda 41,6 km uzunlikdagi

0,4-10 kVli elektr uzatish tarmoqlarini qurish ishlarini bajarish zarurligi aniqlanib, 2025-yilda qo'shimcha chora-tadbir tasdiklangan.

Tasdiqlangan dasturga asosan hozirgi kunda so'x tumaniga zarur bo'lgan qurilma va materiallar to'liq yetkazib olib borilib qo'shimcha brigadalar jalb qilinib qurilish-montaj ishlarini yakunlash choralari ko'rilmoqda.

Bosh direktor



A.Saydaliyev

O'rganish dalolatnomasi

13.06.2025 yil

Rishton tumani

Tuzildi ushbu dalolatnoma Rishton tuman elektr ta'minoti korxonasi bosh muhandis M.Rasulov, ICHTB muhandisi SH.Xasanov, T.Axmedov MFY raisi N.Mahsudovlar ishtirokida.

Shu haqdakim, Tumandagi iqtisodiy-ijtimoiy holati eng "og'ir hudud" hisoblangan T.Axmedov MFY xududidagi elektr qurilamalar va elektr tarmoqlari o'rganildi va quyidagilar aniqlandi.

Rishton tuman T.Axmedov MFY hududidagi iste'molchilar 110/35/10kVli "Rishton" nimstansiyadan chiquvchi 10 kVli "Hurramobod" havo uzatmasidagi ta'minlangan.

T.Ahmedov MFY hududida 8,4 km uzunlikdagi 10-0,4kV havo uzatmasi va 5 dona har quvvatli transformator punktlari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-72 sonli qarori hamda "Tashshabusli byudjet" dasturlari asosida "Og'ir" hudud hisoblangan T.Ahmedov MFYsida 2017-2021 va 2021-2022 yillarda hududdagi 557 va 558-sonli transformator punktni yukini yengillashtirish hamda 10-0,4kVli havo tarmog'ida yangi qurilish ishlarini olib borish maqsadida 75 dona SV-110-3,5 rusumli temir-beton tayanchlarda 1,2km uzunlikdagi 10kVli havo uzatmalari va 273-dona SV-9,5-2,0 rusumli temir beton tayanchlarda 6,9 km uzunlikdagi 0,4kVli havo kabel tarmoqlari SIP rusumli kabellarda montaj qilindi, yuklamalar markaziga 3 dona har bir quvvati 250kVA bo'lgan KTPs rusumidagi transformator punktlari o'rnatildi.

Hozirgi kunda amalga oshirilgan ishlar hisobiga hududdagi iste'molchilarning elektr ta'minoti to'liq yaxshilanib, mustahkamligi oshgan.

Dalolatnomani to'g'ri deb imzo chekuvchilar:

Rishton TETK
bosh muhandisi;

M.Rasulov

Rishton TETK

ICHTB muhandisi;

SH.Xasanov

O'rganish dalolatnomasining bir nusxasini ijro uchun oldim;

Rishton tuman "T.Ahmedov"
MFY raisi;

N.Mahsudov

O'rganish dalolatnomasi

13.06.2025 yil

Rishton tumani

Tuzildi ushbu dalolatnoma Rishton tuman elektr ta'minoti korxonasi bosh muhandis M.Rasulov, ICHTB muhandisi SH.Xasanov, Jahonobod MFY raisi H.Quchqorovlar ishtirokida.

Shu haqdakim, Tumandagi iqtisodiy-ijtimoiy holati eng "og'ir hudud" hisoblangan Jahonobod MFY xududidagi elektr qurilamalar va elektr tarmoqlari o'rganildi va quyidagilar aniqlandi.

Rishton tuman Jahonobod MFY hududidagi iste'molchilar 110/35/10kVli "Rishton" nimstansiyadan chiquvchi 10 kVli "Tuda" va 110/10kVli "Navoiy" nimstansiyadan chiquvchi 10 kVli "Qayrag'och" havo uzatmadaridan ta'minlangan.

Jahonobod MFY hududida 12,5 km uzunlikdagi 10-0,4kV havo uzatmasi va 7 dona har quvvatli transformator punktlari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2661 sonli qarori asosida "Og'ir" hudud hisoblangan Jahonobod MFYsida 2017-2021 yillarda hududdagi 285 -sonli transformator punktini yukini yengillashtirish hamda 10-0,4kVli havo tarmog'ida yangi qurilish ishlarini olib borish maqsadida 0,5km uzunlikdagi 10kVli havo uzatmalari va 68-dona SV-9,5-2,0 rusumli temir beton tayanchlarda 1,44 km uzunlikdagi 0,4kVli havo kabel tarmoqlari SIP rusumli kabellarda montaj qilingan, yuklamalar markaziga 1 dona har bir quvvati 100kVA bo'lgan KTPm rusumidagi transformator punktlari o'rnatilgan.

Huddi shunday, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-72 sonli qarori asosida 2022-2026 yillarda Jaxonobod MFY hududidagi 605-sonli transformator punktini yukini yengillashtirish hamda 10-0,4kVli havo tarmog'ida yangi qurilish ishlarini olib borish uchun, 0,5km uzunlikdagi 10kVli havo uzatmasi, 1,1 km uzunlikdagi 0,4kVli havo kabel tarmog'ini qurish hamda 1 dona quvvati 100kVA bo'lgan KTPm rusumidagi transformator punktini o'rnatish ishlarini amalga oshirish maqsadida hozirgi kunda 32-dona SV-110-3,5 rusumli temir-beton tayanchlar o'rnatildi.

Hozirda qurilish montaj ishlari davom etmoqda va ushbu ishlari joriy yil davomida amalga oshirilishi belgilangan.

Ushbu ishlar amalga oshirilishi bilan, hududdagi iste'molchilarning elektr ta'minoti chnada yaxshilanadi.

Dalolatnomani to'g'ri deb imzo chekuvchilar:

Rishton TETK
bosh muxandisi;

M.Rasulov

Rishton TETK

ICHTB muhandisi:

SH.Xasanov

O'rganish dalolatnomasining bir nusxasini ijro uchun oldim;

Rishton tuman "Jahonobod"
MFY raisi;

H.Quchqorov

**Iqtisodiy-ijtimoiy holati eng “og‘ir hudud” hisoblangan
Farg‘ona viloyati, Rishton tumani, Chung‘ara MFYsidagi iste‘molchilarning
elektr ta‘minoti yuzasidan
ma’sullar ishtirokida rasmiylashtirilgan
Dalolatnoma**

13.06.2025-y

Rishton.t

Rishton tuman elektr ta‘minoti korxonasi bosh muhandis M.Rasulov, ICHTB muhandisi SH.Xasanov, hudud ustasi A.Zamzamovlar ishtirokida,

Shu haqdakim, Tumandagi iqtisodiy-ijtimoiy holati eng “og‘ir hudud” hisoblangan Chung‘ara MFY hududidagi elektr qurilamalar va elektr tarmoqlari o‘rganildi va quyidagilar aniqlandi.

Rishton tuman Chung‘ara MFY hududidagi iste‘molchilar 35/6kVli “Shimoliy So‘x” nimstansiyadan chiquvchi 6 kVli “Chung‘ara” havo uzatmasidagi ta‘minlangan.

Chung‘ara MFY hududida 5,2 km uzunlikdagi 10-0,4kV havo uzatmasi va 6 dona har hil quvvatli transformator punktlari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 06 avgustdagi "Mahallalarda infratuzilmani yaxshilash orqali aholiga qulay sharoitlar yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi 435-sonli qarori bo‘yicha “Og‘ir” hudud hisoblangan Chung‘ara MFYsida 2023 yilda hududdagi 1 va 2-sonli transformator punktini yukini yengillashtirish hamda 10-0,4kVli havo tarmog‘ida yangi qurilish ishlarini olib borish uchun 144 dona SV-110-3,5 rusumli temir-beton tayanchlarda 2,2 km uzunlikdagi 10kVli havo uzatmalari va 214-dona SV-9,5-2,0 rusumli temir beton tayanchlarda 5,8 km uzunlikdagi 0,4kVli havo kabel tarmoqlari SIP rusumli kabellarda montaj qilindi, yuklamalar markaziga 1 dona quvvati 160kVA bo‘lgan KTPs rusumidagi transformator punkti o‘rnatildi.

Hozirgi kunda ushbu amalga oshirilgan ishlar hisobiga hududdagi iste‘molchilarning elektr ta‘minoti to‘liq yaxshilanib, mustahkamligi oshgan.

Dalolatnomani to‘g‘ri deb imzo chekuvchilar:

**Rishton TETK
bosh muxandisi;**

**Rishton TETK
ICTHB muhandisi:**

№3 bo‘lim ustasi;



M.Rasulov

SH.Xasanov

A.Zamzamov

**RISHTON TUMAN
ELEKTR TA'MINOTI
KORXONASI**



**RISHTON DISTRICT
ELECTRIC SUPPLY
ENTERPRISE**

BAYON

14 iyun 2025 yil.

09-11/24-son



**Tasdiqlayman
Rishton TETK boshlig'i
R.D.Dodoqoziev**

Chung'ara MFYda elektr masalasida o'tkazilgan yig'ilish

BAYONI

Yig'ilish raisi:

- R.Boynazarov - Chung'ara MFY raisi

Qatnashdilar – Chung'ara MFY fuqarolari

Kun tartibi:

1. Chung'ara MFYda elektr energiyasi buyicha muammo va kamchiliklar, shuningdek elektr energiyasini uzluksiz va sifatli ta'minlanishida bajarilgan ishlar natijalari to'g'risida.
2. Murojaatlarni o'z muddatida va sifatli o'rganish va murojaatchilarga yetib borishini ta'minlash to'g'risida.

Yig'ilishni Chung'ara MFY raisi R.Boynazarov ochib berdi. Kun tartibiga qo'yilgan birinchi masala yuzasidan fuqaro murojaatlarini ko'rib chiqish xaqida gapirib, tumandagi iqtisodiy-ijtimoiy holati eng "og'ir hudud" hisoblangan Chung'ara MFY hududidagi elektr qurilamalar va elektr tarmoqlari to'g'risida tushunchalar berib utdi. Rishton tuman Chung'ara MFY hududidagi iste'molchilar 35/6kVli "Shimoliy So'x" nimstansiyadan chiquvchi 6 kVli "Chung'ara" havo uzatmasidagi ta'minlangan. Chung'ara MFY hududida 5,2 km uzunlikdagi 10-0,4kV havo uzatmasi va 6 dona har quvvatli transformator punktlari mavjud bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 06 avgustdagi "Mahallalarda infratuzilmani yaxshilash orqali aholiga qulay sharoitlar yaratish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 435-sonli qarori bo'yicha "Og'ir" hudud hisoblangan Chung'ara MFYsida 2023 yilda hududdagi 1 va 2-sonli transformator punktini yukini yengillashtirish hamda 10-0,4kVli havo tarmog'ida yangi qurilish ishlarini olib borish uchun 144 dona SV-110-3,5 rusumli temir-beton tayanchlarda 2,2km uzunlikdagi 10kVli havo uzatmalari va 214-dona SV-9,5-2,0 rusumli temir beton tayanchlarda 5,8 km uzunlikdagi 0,4kVli havo kabel tarmoqlari SIP rusumli kabellarda montaj

qilindi, yuklamalar markaziga 1 dona har bir quvvati 160kVA bo'lgan KTPs rusumidagi transformator punktlari o'rnatilganligini aytib utdi. Hozirgi kunda ushbu amalga oshirilgan ishlar hisobiga hududdagi iste'molchilarning elektr ta'minoti to'liq yaxshilanib, mustahkamligi oshganligini gapirib o'z so'zini yakunladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib yig'ilish

QAROR QILADI :

1. Barcha Chung'ara MFY xududidagi elektr energiyasidan foydalanuvchi axolisi yuqorida uqib eshitirilgan ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Bayon ijrosini ta'minlash korx'ona bosh muxandisi M.Rasulov zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish bayonni yozib boruvchi

SH.Xasanov
